

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17590475>

BANKLARARO RAQOBATNI EKONOMETRIK-STATISTIK MODELASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI

Yuldashev Sanjarbek Arslon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Ekonometrika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Email: sanjaryuldash2258@gmail.com

+998937517371

Annotatsiya: Maqolada banklararo raqobatni baholashning ekonometrik-statistik modellashtirish usullarini o'rganish va uni milliy bank tizimimizga joriy etish yo'llarini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Banklar bozoridagi raqobat omillarini baholashda Xerfindal-Xirshman indeksi modelidan foydalanishning uslubiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklararo raqobat, modellashtirish, bank raqobatbardoshligi, Xerfindal-Xirshman indeksi.

Kirish

Bank tizimini hozirgi siyosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda rivojlantirishda ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshi bo'lishi bu ularning mijozlarini oshishiga hamda ularning bankka bo'lgan ishonish koeffitsiyentini ortishiga olib keladi. Ammo shuning bilan birga mijozlar bilan ishlashda yangi bank xizmatlarini keng raqobat bozoriga kirib kelishi mijozlar uchun sifatli xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilamasa banklar raqobat bozorida o'z o'rnini yuqotib qo'shiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun agar tijorat banklarimiz hozirgi kunda raqobat bozoriga kirib kelayotgan har qanday samarali yangi bank texnologiyalarini hamda ekonometrik-statistik modellashtirishni turli uslubiyotini o'z vaqtida qo'llamasa ular raqobat bozoridan chiqib ketishi mumkin.

Hozirgi kunda, raqamli rivojlanishning yuqori darajasiga erishishning eng muhim omili bu internet mavjudligi, foydalanuvchilar soni va aholini kompyuterlashtirish ko'rsatkichiga asoslangan bo'ladi.

“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan “Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasining Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash yo'nalishida raqamli iqtisodiyot hajmini 2,5 baravar ko'paytirib, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 500 mln. AQSH dollariga yetkazish masalasi kiritilgan”¹.

¹ <https://yuz.uz/news/2022-2026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasining-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>

Yutuqlar bilan birga muammolar mavjud, qilinadigan ishlar ko‘p, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”².

Albatta, banklarni raqamlashtirish orqali bunda, ekonometrik-statistik modellar orqali ularning raqobat bozoridagi faoliyatini oshirish, shuning bilan birga ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyati yaratiladi. Respublikamiz bank tizimida keyingi yillarda turli modellar orqali raqamlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali mijozlarga bank xizmatlarini sifatini va ko‘lamini oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilayotganini guvohi bo‘lmoqdamiz. Ammo yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jahonda bo‘layotgan o‘zgarishlar, globallashuv jarayoni, integratsiya, raqobat bozoridagi faollik, raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada tezlashtirish, bank mijozlariga ko‘rsatilayotgan bank servis hamda xizmatlarini turli modellar qo‘llash orqali yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga Marojatnomada, “2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi” deb ta’kidlab o‘tganlar³.

Yuqorida banklar bozoridagi raqobatning oshishi orqali u yerdagi ustunlikni ta’minlashning birinchi omili bu banklarning har qanday operatsiyalarini modellashtirish orqali mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish hisoblandi. Ikkinchi omili, bu banklarning strategiyasini ishlab chiqishda ekonometrik-statistik modellashtirishning turli yo‘nalishlarini qo‘llash orqali prognoz ko‘rsatkichlarini aniq belgilab olish. Bu jarayonlarni amalga oshirishda banklar raqobatini ekonometrik-statistik modellashtirish uslubiyotini ishlab chiqishi masalalari bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Banklararo raqobat asosida ularni ekonometrik-statistik modellashtirish uslubiy asoslari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Birinchi navbatda bank raqobat bozorida o‘z o‘rnini egallashi bu ularning xizmat ko‘rsatishi sifati, tezkorligi va albatta raqamlashtirilgani bilan baholanadi. Jumladan, olimlar bank sohasidagi raqobat – o‘zining tuzilishi, turli-tumanligi va bozorning xususiyatiga qarab boshqa raqobatlardan tubdan farq qilishini ta’kidlab o‘tishadi. Ularning fikricha, banklararo raqobatni yaratilgan qonunlar asosida boshqarish lozimligini asoslab berishga harakat qilishgan⁴. Banklarning huquqiy jihatdan ularni raqobat bozoridagi faoliyatini belgilab beruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimlashtirgan holda ekonometrik-statistik modellar

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси № 19 (7521). 2020 йил 25 январь

³ Шу ерда.

⁴ Егоров Е.В. Маркетинг банковских услуг. Учебное пособие. Москва, 1999. – с. 13-17

asosida tartibga solish muhim hisoblanadi. A.D.Golubovich fikricha banklar, banklararo raqobat bozoridagi birinchi qadamini bevosita bu mijozlarni talabini bozordagi holati bo'yicha chuqur tahlil qilgan holda amalga oshirishi lozim. Banklar raqobatdoshini kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rganishi va shu asosida o'zining strategiyasini ishlab chiqishi zarur deb hisoblaydi⁵. Olimning fikricha, bank strategiyasi ma'lum bir modellar asosida o'zoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi. E.A.Utkinaning fikricha, banklararo raqobat bank likvidlik darajasi va bank operatsiyalari orqali oladigan daromadi asosida baholash o'rinlidir deb ta'kidlaydi⁶. Bunda, raqobat bozorida aniq modellardan foydalanishda daromad darajasini belgilab olish aniq statistik ma'lumotlarga tayanishi zarur.

Amerikalik iqtisodchi olim G. Murning fikricha tijorat banklari raqobatining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini uslubiy jihatdan ko'rib chiqishda "bank raqobati butun banklar bozoridagi xizmatlarini to'g'ri faoliyat yuritishi va rivojlanishi mexanizmini belgilab beruvchi muhim sifatidir" deb baholaydi⁷. Raqobat bozorida bank aniq sifatga e'tibor berishda modelni to'g'ri qo'llash muhim hisoblanadi. Olimning ushbu fikrini ko'plab shu sohada tadqiqot olib borgan olimlar qo'llab-quvvatlab kelganlar. Haqiqatdan, olim fikricha asosiy e'tibor raqobatni muhim xususiyatini belgilashda ushbu bozordagi holatlarga e'tibor qaratish zarurligini aytib o'tadi. Banklar bozorida raqobat qanchalik sifatli amalga oshirilsa ularning boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir doirasi ham ijobiy bo'ladi degan xulosaga kelingan. Bunda, banklar bozorida iqtisodiy qonunlarni tushunishga asoslangan va kredit-moliya institutlarining moliyaviy xatti-harakatlarining tanlangan modellari doirasida turli iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishga qaratilgan jamiyat subyektlarining faoliyati sifatida qatnashishi uchun imkoniyat beriladi.

Ayrim mualliflarning fikricha, bank raqobatining iqtisodiy ko'rsatkichlar subyektlariga nafaqat banklar, balki bank bozori ishtirokchilari bo'lgan boshqa moliya va nomoliyaviy institutlar ham ta'sir qilishi mumkinligini keltirib o'tadilar. Ushbu tushunchadan kelib chiqqan holda, bank raqobatining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri faqat bank bozori ishtirokchilari o'rtasidagi raqobatning "subyektiv-dinamik-modellashtirish" jarayoni sifatida qaraladi, uning asosiy maqsadi bozorda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash va kengaytirish bo'lib, iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri keyingi omil sifatida qaraladi⁸.

Banklar bozoridagi raqobatni ekonometrik modellashtirishdan foydalanib, bozorga ta'sir qiluvchi omillarning ta'siri o'rganilgan va ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik turi aniqlangan. Bundan tashqari, statsionar bo'lmagan sharoitlarda, tashqi ma'lumotlarning o'zgarishini bashorat qilish qiyin bo'lgan va aksariyat ko'rsatkichlar tushunarsiz o'zgaruvchilarga aylanganda, rivojlanish strategiyasini tuzatish uchun

⁵ Голубович А.Д. Управление банком. Москва, 1995. – с. 194

⁶ Уткина Э.А. Справочник банкира. Москва, 1998. –с. 132

⁷ Moore G. (2014). The Challenges of Shadow Banking. Academy of Economics and Finance 51st Annual Conference February, 12-15. (https://www.newyorkfed.org/medialibrary/media/research/staff_reports/sr664)

⁸ Bibliography 1. Baumgarten L.V. (2005). Analysis of methods for determining the competitiveness of organizations and products. MarketinginRussiaandabroad. No. 4 (48). (http://ej.kherson.ua/journal/economic_10/170.pdf)

moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini doimiy monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Bu o'z natijalarini oshirish uchun emas, balki beqarorlik sharoitida ularni saqlab qolish uchun kerak. Moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganishda dinamik tahlilni bank sektori aksiyalariga investitsiya qilish xavfini tahlil qilish bilan uyg'unlashtirish, ma'lumotlarda iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlar mavjudligini hisobga olgan holda, bank sektori ko'rsatkichlarini har tomonlama o'rganish va bank faoliyati uchun tavsiya etilgan xulosalar chiqarish imkonini beradi⁹.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatning ekonometrik modellashtirish uslubi uchun berishda ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri orqali aniqlash muhim hisoblanadi. Ularni ekonometrik modellashtirish uslubi asoslarini o'rganishda ikkita muhim ichki va tashqi ta'sir qiluvchi mezonlar orqali baholash zarurligini belgilab beradi. Bunda taklif etiladigan, raqobatni ekonometrik modellashtirishning uslubi jihatdan banklarga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi mezonlarni umumlashtiruvchi formula orqali amaliyotga kiritish tavsiya etilmoqda. Ushbu formulaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$S_{Rti} = \frac{S_{ap} + S_{ke} + S_{rd} + S_{bi} + S_{brk}}{T_{ad} + T_{mit} + T_{mak}}$$

Ushbu formulaning mezonlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, bunda banklararo raqobat bozoridagi holatning doimiy o'zgarib turishi ko'rsatkichning aniqligini ta'minlaydi. Bu esa tijorat banklari o'rtasidagi raqobatning ekonometrik modellashtirish orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini uslubi jihatdan to'g'ri yondashilganini anglatadi.

Tahlil va natijalar:

Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish orqali ularning mijozlarga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilanishiga va ularning turlarini ko'payishiga olib keladi. Bank xizmatlarining yangi turlarini paydo bo'lishi mijozlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishda qulayliklarni yuzaga keltiradi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, boshqa bozorlardagi raqobatni shakllantirishdan tubdan farq qiladi, hamda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

iqtisodiy jarayonlarda banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish, ishlab chiqarishdagi raqobatga nisbatan kech paydo bo'lgan bo'lsada, uning rivojlanishi, iqtisodiyotga ta'siri juda tez o'smoqda;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish faqat banklar

⁹ Трусова А. Ю. Эконометрическое моделирование как инструмент развития методологии анализ банковских показателей // Вестник Самарского университета. Экономика и управление. 2023. Т. 14, № 1. С. 202–218. DOI: <http://doi.org/10.18287/2542-0461-2023-14-1-202-218>.

faoliyatini qamrab qolmasdan, balki bankdan tashqari moliya- kredit institutlari va moliyaviy bo'lmagan tashkilotlarni ham qamrab oladi;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish yuzasi ko'p qirrali banklar bozori bilan baholanib, unda banklar bir holatda sotuvchi, ikkinchi holatda xaridor sifatida ishtirok etadi, respublikamiz banklari raqobat bozorida hozirgi kunda faqat kredit resurslarini sotib oluvchi sifatida ishtirok etmoqda;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishning ichki muhiti banklarga muhim yutuqlar olib keladi, chunki banklarning ichki muhitida xizmatlari differensial holatda baholanadi;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish ichki muhitda bank xizmatlari bir-birini to'ldirishi mumkin, ammo raqobatni "tashqi" omilida bu holat yuzaga kelmaydi, chunki tarmoqlararo raqobat kapitalni jalb etish lozimligini anglatadi;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish har bir yo'nalishning o'zini chiqish tarmoqlari bo'lib, bu iqtisodiy jarayonda intensiv raqobatni tashkil etish imkonini beradi;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish baholi raqobatni chegaralash, bu birinchi navbatda bank xizmatini sifatli boshqarish va reklamani tashkil etishga muammo keltirib chiqaradi;

banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishda bozor oligopol differensiallashgan bozor bo'lsa, korporatsiya va kredit institutlarining bozor siyosatini olib borish imkoniyatini oshiradi.

Bundan kelib chiqib, banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish bu tijorat banklari o'rtasidagi raqiblilikni va bankdan tashqari kredit-moliya institutlarning bank xizmatlar bozorida faoliyatini to'g'ri baholashni anglatadi. Zamonaviy tijorat banklari faoliyatining doirasi barcha bozor bo'limlarini qamrab oladi. Bundan kelib chiqib, banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish doirasi ham keng tushuncha bo'lib, bunda raqobat sohasi ko'p va turli xilda bo'ladi. Shuning uchun banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni butun faoliyatini iqtisodiyotni eng asosiy bozor sektori moliyaviy bozorga qaratish zarur bo'ladi. Moliyaviy bozorda banklar boshqa moliyaviy institutlar bilan ham raqobat olib boradi. Bular quyidagilar orqali namoyon bo'ladi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish bir nechta darajalardan iborat bo'ladi. Jumladan, birinchi darajasi-bu tijorat banklari o'rtasidagi raqobat (universal va maxsuslashgan banklar). Raqobatni kuchayishi bu bank faoliyatini universallashtirishga olib keladi, bu esa "banklar supermaketini" yaratishga, bozor sharoitida jarayonni to'g'ri baholagan holda bozor konyukturasini yaratishga, ya'ni bankni raqobatdoshligini oshirishga olib keladi.

Bundan tashqari jahon amaliyotida yana ikkita raqobat darajasi mavjud bo'lib, bularga individual raqobat alohida kredit institutlari raqobati kiradi, ikkinchisi guruhli raqobat, ya'ni moliya-kredit institutlaridan tashkil topgan guruhlar o'rtasida kechadi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish bo'yicha tadqiqotni olib borilganda, bank marketingini axborotlariga tayangan holda, aniq tahlillar olib borishni

taqoza etadi.

Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish tahlili quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

Raqobatni eng kuchli tomonlarini strategiyasini ishlab chiqish; bankning eng yaxshi xizmat turini, markazlashtirish va kuchaytirish; eng yaxshi mijozlarni ajratib olish; potensial mijozlarga xizmat ko'rsatishni ijobiy motivatsiyasini tashkil etish; bank xizmat ko'rsatishini eng kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashni kuchaytirish.

Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish tahlili – bu raqobatni strategik tahlili va strategiyani baholash imkoniyati bilan bog'liq bo'ladi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak bozorda faoliyat olib borayotgan bank, o'zining asosiy raqobatchilari faoliyatini modellar orqali kuzatadi va tahlilini olib boradi.


Yirik universallashtirish va ko'p funksiyali banklarning bir nechta yo'nalishlari bo'yicha strategik tahlil olib boriladi. Bu tahlil quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

1. Funksional tahlil – asosiy raqobatdoshlarini muhim funksional strategiyasini topish va baholash orqali. Bu uch yo'nalish orqali amalga oshiriladi: marketing, operatsion va moliyaviy.

2. Bo'limlar bo'yicha tahlil-bunda bo'limlarning eng asosiy faoliyati olinadi. Raqobat bo'limlari-daromad olishni markaziy lokal tarmog'i barcha funksiyalarni qamrab olib, bu faoliyatni doimo baholab borish nazorat qilishni talab qiladi.

3. Umumiy holda raqobatni strategik tahlili-bu alohida olingan bo'limlarni baholagandan keyin ularni raqobatbardoshligiga e'tibor beriladi.

Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni strategik tahlilini rejasi quyidagilarni o'zida qamrab oladi:



1-rasm. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni strategik tahlilini rejasi¹⁰.

Yuqorida keltirilgan omillardan tashqari banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni strategik tahlilini rejasiga yana ikkita tashqi omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bularga, o'z mijozlarini raqobatdagi fikrini o'rganish va boshqa banklarning mijozlarini raqobatdagi fikrini o'rganish zarur bo'ladi, raqobatchining o'zining potensial salohiyati va imkoniyati darajasidan kelib chiqib raqobatdoshiga

¹⁰ Муаллиф ишланмаси.

munosabati o'rganiladi.

Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni baholashni strategik tahlili imkoniyatlari – bu o'z raqobatchisining olib borayotgan faoliyatiga javob qaytarish va yuzaga kelgan jarayonlardan to'g'ri xulosa chiqargan holda imkoniyatidan to'liq foydalanish tushuniladi. Iqtisodchilar kreditlarning mavjudligiga banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni o'zaro raqobatning ta'siri masalalarini ikki sababga ko'ra faol muhokama qiladilar. Birinchidan, bunday ta'sirning aniq nazariy bahosi hali berilmagan. Ikkinchidan, bu masalalar bo'yicha mavjud axborot va ma'lumotlar bir-biriga qarama - qarshi xarakterga ega.

Ba'zi bir tadqiqotlarga ko'ra, banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish faqat ijobiy samara beradi, boshqalar esa uning salbiy oqibatlarini qayd etadilar, uchinchilar esa umuman hech qanday ta'sirni ko'rmaydilar. Tadqiqotlarning ancha chuqur detallarini bayon etishdan oldin banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishga taalluqli bo'lgan ba'zi bir nazariy masalalar, shuningdek boshqa tadqiqotlarning ba'zi bir xulosalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Umuman olganda, iqtisodchilar banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishning mavjudligi yaxshi deb hisoblaydilar. Raqobatning oshishi qarz oluvchilar uchun foiz stavkalarining pasayishi, mahsulotlarning turli-tuman bo'lishi va bu bilan kreditlar hajmining oshishiga olib kelishi kerak. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni keng qamrovli tushuncha bo'lib, bugungi kunda bank xizmat turlarining barcha jabhalarini o'zida mujassamlashtirmoqda. Bu esa banklarni bank bozorining barcha jabhalarda o'z o'rnini saqlab qolishga, xizmat ko'rsatishni sifatini oshirishga va zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalanishga majbur etmoqda. Bu esa bevosita mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini, qiziqishini va bankning xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Bugungi kunda jahon amaliyotida banklarning mingdan ortiq xizmat turlari mavjudligi, banklar bozorida raqobatning keskin ravishda o'sishiga olib kelmoqda. Xo'sh banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish nima? Uni yuzaga keltiruvchi asosiy omillari nimalarda o'z aksini topadi? – kabi savollar bugungi kunda respublikamiz bank bozorining asosiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Bank faoliyatida banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni rivojlanishi yuqori darajadagi ko'rsatkich hisoblandi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, boshqa bozorlardagi raqobatni shakllantirishdan tubdan farq qiladi, hamda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Bank strategiyasini ishlab chiqishda, tuzishda banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirish muhim rol o'ynaydi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni kuchi shundaki, bank strategiyasini tuzish jarayonida bankni rivojlantirish omillari, bankni kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq ko'rsatib berish imkonini beradi. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni eng asosiy omillariga bank kapitalining adekvatligi, aktivlarning sifati, resurslari, axborotlar, moliyaviy innovatsiyalar, texnika va texnologiya, bank imidjlari kiradi.

Banklar bozoridagi raqobatni tahlil qilishda iqtisodiy jarayonlardagi raqobat

chegasini aniq belgilash lozim bo'ladi. Bozordagi raqobat chegarasini nazorat qilish jahon amaliyotida Xerfindal-Xirshmanning medianalar qiymat indeksidan foydalaniladi. Bu indeksning umumiy ko'rinishi quyidagicha¹¹:

$$H = S_1^2 + S_2^2 + \dots + S_n^2 \quad (1)$$

$S_1^2, S_2^2, \dots, S_n^2$ lar bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar (bu yerda birinchi o'rinda tahlil qilinayotgan bozordagi ulushi eng yuqori bo'lgan firmalar olinadi). Olimlarning fikricha, bozorda $X \leq 1000$ dan kichik bo'lsa raqobat kuchli, $1000 \leq X \leq 1800$ oralig'ida o'rtacha raqobat, $1800 \leq X$ bo'lsa, bozorda monopolistik jarayon hukmdorlik qilayotganidan dalolat beradi deb tahlil qilingan. Bu indeks chegarasi turli adabiyotlarda turlicha talqin etilgan. Jumladan, J. Kvoka tahliliga ko'ra indeksning yuqori chegarasi 4500 va quyi chegarasi 1200 deb olish zarur deb hisoblaydi¹². Davlatlarda bu ko'rsatkichlar turlicha qabul qilingan. Jumladan, AQShlarida bu indeks o'rtacha chegarasi $1000 \leq X \leq 2500$ deb qabul qilingan. Yevropa davlatlarida bu ko'rsatkich chegarasi¹³, $100 \leq X \leq 250$ Rossiyada $10000 \leq X \leq 25000$ deb qabul qilingan.

Bank raqobatbardoshligi deganda, bank o'zining asosiy va korporativ mijozlarini talabini qondirishi va ushlab turishi imkoniyati hamda yangi instrumentlar asosida mintaqalarda mavqeini mustahkamlashi tushuniladi. Bu berilgan ta'rif bank faoliyatini ikki muhim xususiyatini o'zida qamrab oladi. Birinchisi, statistik holati, ya'ni tahlil qilish jarayonida moliyaviy natijalarining o'zgarishi. Ikkinchisi, dinamik holati ya'ni banklarning yangi moliyaviy instrumentlar orqali mintaqalarda yangi bank xizmatlarini ko'rsatishi. Tijorat banklarini raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirishni quyidagi koeffitsiyent orqali baholashni taklif qiladi¹⁴.

$$K_r = \sum_{i=1}^n F_i \frac{SB_i}{E_i} \quad (2)$$

Bu yerda, K_r – tijorat banklari raqobatbardoshlik koeffitsiyenti, $\sum_{i=1}^n F_i$ - umumiy raqobatbardoshlik koeffitsiyentida i – ko'rsatkich rangi, SB_i i – ko'rsatkichning ekspert usulida olingan sonli baholash qiymati, E_i - tadqiqot faoliyatining birlik qiymatida i – ko'rsatkichning etalon qiymati, n – raqobat omillari soni.


Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirishni koeffitsiyenti quyidagi omillarga ko'proq bog'liq bo'ladi:

¹¹ Александрова Е.И., Гусиева М.Б. и другие. Общеэкономические основы рыночного хозяйствования. М.: 2002. –С. 58-59.

¹² Kwoka J. Some Thoughts on Concentration, Market Shares, and Merger Enforcement Policy / Presented at the FTC/DOJ Workshop on Merger Enforcement, Washington, D.C., February 17, 2004. (availab <http://www.ftc.gov/bc/mergerenforce/presentations/040217kwoka.pdf>)

¹³ US Department of Justice. Antitrust Division. Workload Statistics FY 1997-2006. (<http://www.usdoj.gov/atr/public/workstats.htm>), European Merger Control-Council Regulation 139/2004 - Statistics 21 September 1990 to 30 June 2007. (<http://ec.europa.eu/comm/competition/mergers/statistics.pdf>)

¹⁴ Савушкина Ю.В. Управление конкурентоспособностью коммерческого банка на основе развития сети филиалов. Санкт-Петербург.: 2006. –С. 3-18.



2-rasm. Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirishni koeffitsiyentini omillarga bog'liqligi algoritmi¹⁵.

Demak, har bir bosqichda bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini o'zgarishi dinamikasi yuzaga keladi. Bu esa tanlangan mintaqada bankning dasturini samarali boshqarish imkonini beradi. Bankning filiali orqali uning raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirish orqali baholash formulasi quyidagi ko'rinishni oladi¹⁶:

$$K_{xr} = K_r (1 + H), \quad H = \prod_{i=1}^3 h_i, \quad h \in [0,1] \quad (3)$$

Jahon amaliyotida raqobatbardoshlikni to'liq ochib berishda foydalaniladigan klassifikatsiyalar ma'nosi jihatidan bir-birini to'ldiradi. Haqiqatdan agar e'tibor beradigan bo'lsak, tijorat banklarida ko'rsatkichlarning aloqadorligi asosida uning har bir ko'rsatkichlari asosida reytingi aniqlanadi. Reytingni yuqori bo'lishi yoki ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligi kopleks tarzida, bankning bozordagi holatini saqlab turish imkonini beradi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida tijorat banklarining ekonometrik statistik modellashtirish orqali ta'sirini o'rganishda uslubiy jihatdan yondashganda ularning mezonlari turlicha bo'lishi mumkin. Bunda taklif etiladigan, raqobatni ekonometrik modellashtirishning uslubiy jihatdan banklarga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi mezonlarni umumlashtiruvchi formula orqali amaliyotga kiritish tavsiya etilmoqda. Ushbu formulaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

¹⁵ Муаллиф ишланмаси.

¹⁶ Савушкина Ю.В. Управление конкурентоспособностью коммерческого банка на основе развития сети филиалов. Санкт-Петербург.: 2006. –С. 3-18.

$$ES_{Rti} = \frac{S_{ap} + S_{ke} + S_{rd} + S_{bi} + S_{brk}}{T_{ad} + T_{mit} + T_{mak}} \quad (4)$$

Bu yerda, ES_{Rti} – tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qilish indeksi, S_{ap} - tijorat banklarining aktiv va passivlarini baholash mezon, S_{ke} - tijorat banklari kapitalining yetarlilik mezon, S_{rd} - tijorat banklarining rentabellik va daromadlilik mezon, S_{bi} - tijorat banklarining imijini baholash mezon, S_{brk} – banklararo raqobat koeffitsiyenti, T_{ad} - mamlakat aholisining yashash dinamikasi mezon, T_{mit} - mamlakat iqtisodiy tarmog'ining real holatini baholash mezon, T_{mak} - mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini real holatini baholash mezon.

ES_{Rti} – tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qilish indeksi ($0 < ES_{Rti} < 1$) oraliqdagi qiymatlarga ega bo'ladi. Uning o'zgarish mezonlari quyidagicha ko'rinishda tavsiya etiladi:

Agar, $0 < ES_{Rti} < 0,35$ bo'lsa, tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri sezilsiz bo'ladi.

Agar, $0,35 < ES_{Rti} < 0,55$ bo'lsa, tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri sezilarli bo'ladi.

Agar, $0,55 < ES_{Rti} < 0,75$ bo'lsa, tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rtacha sezilarli bo'ladi.

Agar, $0,75 < ES_{Rti} < 1$ bo'lsa, tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri yuqori bo'ladi.

Agar, $ES_{Rti} \geq 1$ bo'lsa, tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri umuman bo'lmaydi.

Bunda banklararo raqobat bozorida raqobat kuchli bo'lib, banklarning har bir holat bo'yicha bozordagi faoliyatini o'zgarishi ularning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Natijada, banklar tomonidan mijozlar uchun taklif etilayotgan har qanday yangi texnologiyalar asosidagi xizmatlari ularning banklararo raqobat bozorida holatini o'zgarishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar: Yuqorida olingan tahlillar asosida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Banklararo raqobatni ekonometrik statistik modellashtirishni strategik tahlilini algoritmi taklif etildi.

2. Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirishni koeffitsiyentini omillarga bog'liqligi algoritmi ishlab chiqildi.

3. Bankning filiali orqali uning raqobatbardoshligini ekonometrik statistik modellashtirish orqali baholash formulasi taklif etildi.

4. Raqobatni ekonometrik modellashtirishning uslubiy jihatdan banklarga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi mezonlarni umumlashtiruvchi formula ishlab chiqildi.

5. ES_{Rti} – tijorat banklari o'rtasidagi ekonometrik statistik modellashtirish orqali raqobatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qilish indeksi ($0 < ES_{Rti} < 1$) oraliqdagi qiymatlarga ega bo'lishi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi № 19 (7521). 2020 yil 25 yanvar

2. Александрова.Е.И, Гусиева М.Б. и другие. Обще экономические основы рыночного хозяйствования. М.: 2002. –С. 58-59.

3. Голубович А.Д. Управление банком. Москва, 1995. – с. 194

4. Егоров Е.В. Маркетинг банковских услуг. Учебное пособие. Москва, 1999.с. 13-17

5. Савушкина Й.В. Управление конкурентоспособностью коммерческого банка на основе развития сети филиалов. Санкт-Петербург.: 2006. –С. 3-18.

6. Трусова А. Ю. Эконометрическое моделирование как инструмент развития методологии анализ банковских показателей // Вестник Самарского университета. Экономика и управление . 2023.Т . 14, № 1. С . 202–218. DOI: <http://doi.org/10.18287/2542-0461-2023-14--202-218>.

7. Уткина Э.А. Справочник банкира. Москва, 1998. –с. 132.

8. Bibliography 1. Baumgarten L.V. (2005). Analysis of methods for determining the competitiveness of organizations and products. Marketing in Russia and abroad. No. 4 (48). (http://ej.kherson.ua/journal/economic_10/170.pdf)

9. <https://yuz.uz/news/2022-2026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasining-yangi-loyihasi-muhokamaga-qo'yildi>

10. Kwoka J. Some Thoughts on Concentration, Market Shares, and Merger Enforcement Policy / Presented at the FTC/DOJ Workshop on Merger Enforcement, Washington, D.C., February 17, 2004. (availab <http://www.ftc.gov/bc/mergerenforce/presentations/040217kwoka.pdf>)

11. Moore G. (2014). The Challenges of Shadow Banking. Academy of Economics and Finance 51st Annual Conference February, 12-15. (https://www.newyorkfed.org/medialibrary/media/research/staff_reports/sr664)

12. US Department of Justice. Antitrust Division. Workload Statistics FY 1997-2006.

13. (<http://www.usdoj.gov/atr/public/workstats.htm>), European Merger Control- Council Regulation 139/2004 - Statistics 21 September 1990 to 30 June 2007. (<http://ec.europa.eu/comm/competition/mergers/statistics.pdf>)